

IQTISODIY O‘SISHNING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSİYALAR

Qarshiyev Istamjon Hayitmurod o‘g‘li

Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi
orcid: 0009-0007-3191-1068, e-mail: istamkarshiev114@gmail.com

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shining barqarorligini ta’minlashda asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi muhim omil hisoblanadi. Bizga ma’lumki, iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar ishlab ciqrish quvvatlarini kengaytiradi, korxonalarga yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmalarni rivojlantirish va asosiysi bandlikni oshirish asosida iqtisodiyotning tizimli yangilanishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshiralayotgan investitsiya siyosati ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiyalash, innovatsion loyihalarni kengaytirish va hududiy investitsion faollini oshirishga qaratilishi hisobiga iqtisodiy o‘shiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritigan investitsiyalar hajmi, uning YaIM hajmidagi ulushi hamda o‘sh sur‘atlari keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar mamlakatda investitsion faoliyatning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish imkonini yaratadi.

1-jadval

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi⁴¹.

Yillar	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	YaIMdagi hissasi, %	O‘sh sur‘ati, %
2010	16463,7	21,2	9,5
2011	19500	22,3	18,5
2012	24455,3	23,5	25,4
2013	30490,1	24,6	24,6
2014	37646,2	25,5	23,4
2015	44810,4	22,9	18,9
2016	51232	22,5	14,3
2017	72155,2	22,7	11,4
2018	124231,3	29,1	18,9
2019	195927,3	36,8	22,5
2020	210195,1	33,1	3,2
2021	239552,6	29,2	14
2022	266240	31,4	7,8
2023	356071,4	32,2	33,8
2024	507490,2	32,5	8,3

⁴¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, O'zbekiston Respublikasida 2010-2024-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib borgan. Xususan, 2010-yilda 16,5 trln. so'mni tashkil etgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 507,5 trln. so'mga yetgan, ya'ni 30 marotaba o'sganligi kuzatildi. Mazkur o'sish tahlil qilinayotgan davrda mamlakatda olib borilayotgan investitsion muhitni yaxshilash, davlat xususiy sherikchilikni rivojlantirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasi hisoblanadi.

Ayniqsa, investitsiyalar hajmining o'sishi 201-2019-yillarda kuzatilmoqda. Mazkur yillarda mamlakatda kapital bozorini erkinlashtirish, infratuzilma loyihalariga xorijiy kreditlarni jalb qilish hamda hududiy sanoat zonalarni tashkil etish jarayonlari faol amalga oshirilgan.

Investitsiyalarning YaIM hajmidagi ulushi ham yildan-yilga oshgan, xususan, 2010-yildagi 21,2 % dan 2019-yilda 36,8 foizgacha oshib, keyin 2020-yildan esa 30-33 % oraliqda barqarorlashgan. Bu mamlakat iqtisodiyotida kapital qo'yilmalarning yuqori ulushini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2010-2024-yillarda mamlakatda investitsion faollik sezilarli darajada oshgan. Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning o'sishi nafaqat ishlab chiqarishnin kengayishiga, balki ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bu esa mamlakatda iqtisodiy o'sishning ekologik barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirgan.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim hisoblanadi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab tashqi faoliyatda olib borilgan siyosat, ya'ni tasqi savdo siyosatini erkinlashtirish, eksport tarkibini kengaytirish hamda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishida izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini yangilash va eksport hajmini kengaytirish borasida muhim natijalarga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Global Footprint Network (2021). *Ecological Footprint and Biocapacity Indicators*.
- [2] Singh, R. K., Murty, H. R., Gupta, S. K., & Dikshit, A. K. (2009). "An overview of sustainability assessment methodologies." *Ecological Indicators*, 9(2), 189–212.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *Atrof-muhit va ekologiya statistik to'plami* (so'nggi yillar).
- [4] O'zbekiston Respublikasi "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030"